**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G. Muxamedov

2023 yil "___" __________

# KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ
# O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta'lim |
| Ta'lim sohasi: | 110000 – Ta'lim |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60112100 - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi |

**Chirchiq – 2023**

| Fan/modul kodi<br>KH106 | | O‘quv yili<br>2023-2024 | Semestr<br>1 | ECTS - Kreditlar<br>6 |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi<br>Majburiy** | | **Ta’lim tili<br>O‘zbek** | | **Haftadagi dars soatlari<br>4** |
| **1.** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Konstitutsiyaviy huquq** | 90 | 90 | 180 |

2.

**I. Fanning mazmuni.**

“Konstitutsiyaviy huquq” fani 60112100-Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishida talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni, ularda davlat-huquq masalalari to‘g‘risidagi tushuncha va kategoriyalar jarayonlar o‘rganiladi.

“Konstitutsiyaviy huquq” fanining **maqsadi** - umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar maktablarida davlat va huquq asoslari fanini bo‘lajak dars beradigan o‘qituvchilarda konstitutsiyaviy huquq to‘g‘risida ilmiy talqin etish va ularni o‘quvchilarga o‘rgatish **ko‘nikma** va **malakalarini** hosil qilishdan iborat.

**II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Konstitutsiyaviy huquqining umumiy tavsifi va uning nazariya asoslari**

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi tushunchasi va predmeti. Konstitutsiyaviy huquq huquqning yetakchi sohasi sifatida. Konstitutsiyaviy huquq manbalari. Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlar. Konstitutsiyaviy huquqiy munosabat sub’ektlari. Konstitutsiyaviy huquq tizimi, Konstitutsiyaviy huquq vazifalari, konstitutsiyaviy-huquq normalari masalalarining yoritilishi.

**2-mavzu. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasisining qabul qilinishi.**

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasisining qabul qilinishiga bo‘lgan zarurat. Yangi Konstitutsiyasi xalqimiz muallifligida yaratilishi. Konstitutsiyada jahon konstitutsiyaviy rivojlanish tajribalalari hamda milliy qadriyatlarning aks etishi.Konstitutsiyaning tuzilishi.

**3-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari**

Davlat suvereniteti va uning konstitutsiyaviy asoslari. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari. Konstitutsiya va qonunning ustunligi. Tashqi siyosatning konstitutsiyaviy asoslari

**4-mavzu. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari**

Inson huquqlari va fuqaro huquqlari, erkinlik, majburiyat tushunchalari.Inson huquqlari turlari. Shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy

| | |
|---|---|
| | huquqlar. Huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy cheklanishi. Huquq va erkinlik kafolatlari.<br><br>**5-mavzu. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari**<br>Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish. Boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish. Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish. Soliq va yig‘imlarni to‘lash. Vatanni himoya qilish himoya qilish.<br><br>**6-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik**<br>Shaxsning konstitutsiyaviy maqomi. Fuqarolik tushunchasi. Yagona fuqarolik. Fuqarolarning tengligi.Fuqarollikka ega bo‘lish asoslari.<br>Fuqarolikni yo‘qotish. Fuqarolar huquqlarini himoya qilish. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati. Fuqarolik masalalari bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari.<br><br>**7-mavzu. Jamiyatning iqtisodiy negizi**<br>Mulk shakllari va teng huquqligi.Xususiy mulkni daxlsizligi va davlat tomonidan himoya qilinishi.Iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi.Istemolchi huquqlarining ustunligi.Mulkka egalik qilish va mulkdan mahrum qilish asoslari.Umummilliy boyliklar va ulardan foydalanish hamda muhofaza qilish.<br>**8-mavzu. Fuqarolik jamiyati institutlari**<br>Fuqarolik jamiyati institutlari va ularning faoliyati qonunga muvofiq amalga oshirilishi.Jamoat birlashmalari. Kasaba uyushmalari.Siyosiy partiyalarning hokimiyatda ishtiroki.Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi faoliyat yurituvchi birlashmalar tuzishning ta’qiqlanishi. Yoshlar tashkilotlari. Davlat va diniy tashkilotlar munosabati.<br><br>**9-mavzu. Oilaning konstitutsiyaviy asoslari**<br>Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini. Oilaning jamiyat va davlat tomonidan muhofaza qilinishi.Nikoh tuzish asoslari. Ota-onalarning voyaga yetmagan farzandlar oldidagi majburiyati. Davlatning ota-onalar vasiyligidan mahrum bo‘lgan hamda yetim bolalarni boqish, tarbiyalash, o‘qitish vazifasi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilishga majburligi. Ommaviy axborot vositalari<br><br>**10-mavzu. O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi.**<br>O‘zbekistonning davlat tuzilishi shakli.O‘zbekistonning ma’muriy-huquqiy tuzilishi.Ma’muriy- huquqiy birliklarni tashkil etish va tugatish tartibi. Qoraqalpog‘iston respublikasi.<br><br>**11-mavzu. Saylov huquqi va tizimi.**<br>Saylov tizimi va saylov huquqi tushunchasi.Saylov huquqi prinsiplari.Saylovlarda erkinlikni ta’minlash.Saylov jarayoni va sub’ektlari. Saylov |

| | | |
|---|---|---|
| | | senzlari. Saylov o‘tkazish muddatlari. Saylov kampaniyasini e’lon qilish. Takroriy ovoz berish va takroriy saylov.<br><br>**12-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi**<br>Oliy Majlisning davlat hokimiyati tizimidagi o‘rni va vazifasi. Oliy Majlisning tarkibiy tuzilishi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini tashkil etish. Palatalarning huquqiy maqomi va ichki tuzilishi. Palatalarning birgalikdagi va mutlaq vakolatlari. Qonunchilik jarayoni. Qonunchilik tashabbusiga ega bo‘lgan subyektlar. Qonunchilik palatasi deputati va Senat a’zolarining huquqiy maqomi.<br><br>**13-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti**<br>Prezident maqomi. Prezidentning saylash tartibi.Prezident vakolatlari. Prezident faoliyatining kafolatlari.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar. Prezident tomonidan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatini tarqatib yuborish tartibi.<br><br>**14-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi**<br>Vazirlar Maxkamasini shakllantirish. Vazirlar Maxkamasi tarkibi. Vazirlar Maxkamasining vazifasi. Mahalliy ijro hokimiyati organlari. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish tartibi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar.<br><br>**15-mavzu. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari**<br>Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi, vazifasi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari – davlat hokimiyatining vakillik organi. Mahalliy kengashlarni tashkil etish tartibi, tarkibi, faoliyat shakli.Mahalliy Kengash deputatlarining huquqiy maqomi. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari. Hokim – vakillik va ijro hokimiyati boshlig‘i. Hokimlarni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati<br><br>**III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**<br>1. Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:<br>2. Konstitutsiyaviy huquq fanining predmeti, tushunchasi va uslublari<br>3. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqining tushunchasi, manbaalari va tizimi<br>4. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining yaratilishi<br>5. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasisining qabul qilinishi va “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyani ro‘yobga chiqarish asoslari.<br>6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati<br>7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari<br>8. Insonparvar va demokratik huquqiy davlat qurishda fuqarolik jamiyatining o’rni.<br>9. O‘zbekistonda fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari |

| | |
|---|---|
| | 10. YAngi O‘zbekistonda inson va fuqarolar shaxsiy huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy asoslari<br>11. O‘zbekistonda inson va fuqarolar siyosiy huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari<br>12. O‘zbekistonda inson va fuqarolar ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari<br>13. O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari<br>14. O‘zbekistonda fuqarolar burchlarining konstitutsiyaviy asoslari<br>15. O‘zbekistonda jamiyat iqtisodiy tuzilishining konstitutsiyaviy asoslari<br>16. O‘zbekistonda moliya va pul-kredit tizimining konstitutsiyaviy asoslari<br>17. O‘zbekistonda jamoat birlashmalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari<br>18. Oila va ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy maqomi<br>19. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy–hududiy va davlat tuzilishining konstitutsiyaviy asoslari<br>20. Qoraqalpofiston Respublikasining Konstitutsiviy maqomi<br>21. Xalqaro standartlar va O‘zbekiston Respublikasi saylov qonunchiligi<br>22. Saylov huquqi va saylov tizimi<br>23. Yangi Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tarkibi va vakolatidagi o’zgarishlar<br>24. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati vakillik organlarining deputatlari va senat a’zolarining huquqiy holati<br>25. Yangi qabul qilingan Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maqomi<br>26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi<br>27. O‘zbekiston Respublikasi Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy asoslari<br>28. O‘zbekiston Respublikasida Sud hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari<br>29. O‘zbekiston Respublikasi Prokuratura organlarining huquqiy maqomi<br>30. O‘zbekiston Respublikasi xavfsizligi va mudofaasini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari<br>31. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy taraqqiyot istiqbollari<br><br>**Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta’limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo‘yilgan masalani o‘rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to‘liq ochib beriladi.<br><br>**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**<br>1. Konstitutsiyaviy huquqning umumiy tavsifi va uning nazariya asoslari |

| | |
|---|---|
| | 2. Mustaqil o`zlashtirish, taqdimot tayyorlash<br>3. Inson va fuqaro huquqlariga oid asosiy tushunchalar, ularning turlari, kafolatlari va burchlari<br>4. Fuqarolik jamiyati va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning konstitutsiyaviy asosi<br>5. O‘zbekistonda davlat hokimiyati tashkil etilishining konstitutsiviy-huquqiy tartiboti<br>6. Mustaqil o`zlashtirish, taqdimot tayyorlash<br>7. Ma’muriy huquqning O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o‘rni<br>8. Ma’muriy protseduralarning O‘zbekistondagi bugungi holati va rivojlanish imkoniyatlari<br>9. Mustaqil o`zlashtirish, taqdimot tayyorlash. Asboblardan birida ishlashni namoyish qilish.<br>10. Konstitutsiyaviy huquq huquq tarmog‘i sifatida<br>11. Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlar.<br>12. Konstitutsiyani himoyalash va konstitutsiyaviy nazorat<br>13. Inson huquqlari va fuqaro huquqlari, erkinlik, majburiyat tushunchalari<br>14. Shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy huquqlar.<br>15. Sud hokimiyati organlari<br>16. Mustaqil o`zlashtirish, esse yozish, manbaalar bilan ishlash.<br>17. Siyosiy institutlar<br>18. Fuqarolarning jamoat birlashmalariga uyushish va ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqini mazmun va mohiyati<br>19. Nazariy manbaalar asosida mustaqil o`zlashtiriladi, doklad tayyorlanadi<br>20. Fuqarolik jamiyati va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning konstitutsiyaviy asosi.<br>21. Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari<br>22. Nazariy manbaalardan foydalanib, dasturiy vositalarda kuzatish amallari bajariladi, natijaga ko`ra yozma xisobot tayyorlanadi<br>23. Diniy tashkilotlar va birlashmalar<br>24. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, taqiqlash va faoliyatini cheklash asoslari |
| 3. | **VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:**<br>konstitutsiyaviy huquq munosabatlar masalalari to‘g‘risidagi tushuncha va kategoriyalarni o‘rgatish, inson huquqlari va majburiyatlari o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi asosiy qoida va tamoyyillarini o‘zlashtirish hamda umumnazariy bilimlarning berish uchun zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni ega bo‘lishi;<br>konstitutsiyaviy huquq o’qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni tatbiq qilish uchun zarur bo’ladigan bilim va ko’nikmalar, konstitutsiyaviy huquq darslarida zamonaviy ta’lim vositalardan foydalanish, zamonaviy talablar asosida davlat va huquq nazariyasi tarixi darslarini samarali tashkil qilish yo’llari, ta’lim |

| | |
|---|---|
| | sohasidagi innovatsion faoliyat asoslari hamda konstitutsiyaviy huquq fanini o'qitishda va ilmiy tadqiqotlar olib borishda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan xabardor bo'lish haqida **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)**<br>konstitutsiyaviy huquq fanining mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligi va izchilligini ta'minlash, mashg`ulotlarda ta'lim resurslaridan samarali foydalanish. o'qitish mazmuniga oid axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va o'quvchilarga yetkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi, konstitutsiyaviy huquq darslarida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash haqida bilishi va ulardan **foydalana olishi; (ko'nikma).**<br>konstitutsiyaviy huquq darslariga qo'yiladigan zamonaviy talablar asosida darslarni tashkil etish malakalariga ega bo'lishi, zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish, konstitutsiyaviy huquq yutuqlari, fanning texnika va ishlab chiqarishga qo'llanishi bo'yicha tadqiqotlaridan xabardor bo'lish haqida **malakalarga ega bo'lishi kerak**. |
| 4. | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.<br>2. Saidov A.X. va boshqalar. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: «Complex Print» nashriyoti, 2019.<br>3.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2012. – 649 b.<br>4.Xusanov O.T. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi // Darslik. – Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2012. – 564 b.<br>**XI. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar |

| | |
|---|---|
| | Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.<br>2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.<br>3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.<br>4. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b.<br>**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni**<br>1. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)<br>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 6108 - son farmoni.<br>**Axborot manbaalari**<br>1. http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.<br>2. http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.<br>3. http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.<br>4. www.pedagog.uz<br>5. www.apkpro.ru/content/view<br>6. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten<br>7. www.relarn.ru/conf/conf2007<br>8. http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/<br>9. http://www.allmath.ru/<br>10. http://www.ziyonet.uz/<br>11. www.cspi.uz |
| 7. | Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "24" avgust dagi qarori bilan tasdiqlangan |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>B.M. Qandov CHDPU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" |

| | |
|---|---|
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>N.A. Nazarov - CHDPU, “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori (DSc)<br>M.Boltayev - TDYuU professori, yuridika fanlari doktori |